

Ratimov S

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI



Registatsion raqam № 07/04/0098
06.2024 y.

“HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI”

O'QUV DASTURI

Sirtqi bo'lim

- Bilim sohasi: 1010000 - Xizmatlar ko'rsatish sohasi
- Ta'lim sohasi: 1020000 - Gigiyena va ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi
- Ta'lim yo'nalishi: 61020200 - Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda)

Fan/modul kodi HEX4704	O'quv yili 2024-2025	Semestr 7	ECTS - Kreditlar 4
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4
Fanning nomi	Auditoriya Mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1 Hayot faoliyati xavfsizligi	16	104	120
2.	<p>I. Fanning oliy ta'limdagi o'rni hamda maqsadi va vazifalari</p> <p>1.1.Fanning dolzarbligi</p> <p>Ushbu dastur fan tarixi, rivoji va istiqboli hamda Respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalari, ishlab chiqarish va xududiy xavfsizlik muammolarining inson hayoti xavfsizligiga ta'siri masalalarini qamraydi. Zero hozirgi vaziyatda xavfsiz hayotni ta'minlash masalalari eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki texnosferalarda ishlab chiqarish jarayoni buzilishi, ishlovchilar uchun sanitariya va gigiyena meyor va qoidalarini yaratilmasligi, muhit rivojlanishdagi noxush vaziyatlarning murakkablashuvi, davlatlar o'rtasida insoniyat hayotiga xavf-xatar soluvchi holatlarning ro'y berishi, insoniyat tomonidan qo'llanilayotgan turli zaharli va zararli moddalar va vositalar ko'plab xavflarni yuzaga keltirib, insonlarning hayotiy faoliyatiga, sog'lig'iga, atrof-muhit tozaligiga va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga tahdid solmoqda. Shu sababli ham mamlakatimizning eng muhim va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalari qatorida aholi hayotining xavfsizligini ta'minlash masalalari dolzarb o'rinni olgan. Aynan shu muammolarning yechimini "Hayot faoliyati xavfsizligi" fani o'rganadi.</p> <p>Fan o'qitilishining maqsadi – bo'lajak mutaxassislarga hayotiy faoliyatlarida yuzaga keladigan xavflarning kelib chiqish sabablarini, xususiyatlarini, oqibatlarini va ularni yo'qotish qoidalarini, xavfsiz ish sharoitlarini yaratish, tabiiy, texnologik, ekologik va boshqa tushdagi favqulodda vaziyatlardan aholini himoya qilish, ularni nazariy va amaliy jihatdan himoyalashga hamda jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalarini o'rgatishdan iborat.</p> <p>O'quv fanini o'rganishning asosiy vazifalari: hayotiy faoliyatda yuzaga keladigan xavflarni identifikatsiyalash va ularni o'rganish, ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, texnosferada kasb kasalliklarini kamaytiradigan va baxtsiz hodisalarni oldini oladigan chora-tadbirlarni o'rganish. Shuningdek, aholini tabiiy ofat, avariya va halokatlardan himoyalash usullariga o'rgatish, zararlangan shikastlanish o'choqlaridagi fuqarolarni qutqarish va tiklov ishlarini o'tkazish, yong'inga qarshi xavfsizlik choralarini ko'rish, jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish va boshqa muhim vazifalarni bajara oladigan bilim, ko'nikma va kasbiy malakaga ega insonni tarbiyalashga qaratilgan.</p>		

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

2.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. "Hayot faoliyati xavfsizligi" faniga kirish

Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash. Hayot faoliyati xavfsizligi haqida tushuncha. Hayot faoliyati xavfsizligining asosiy tushunchalari va terminlari. Hayot faoliyati xavfsizligi tarkibiy qismlari va ularning tekshirish obyektlari. Hayot faoliyati xavfsizligi nazariy asoslari.

2-mavzu. Hayot faoliyati xavfsizligining huquqiy va tashkiliy asoslari

Hayot faoliyati xavfsizligining huquqiy asoslari, mazmuni. Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan asosiy qonunlar, standartlar, nizomlar, qoidalar va me'yoriy hujjatlar tizimi.

3-mavzu. Ishlab chiqarishning sanitariyasi va gigiyenasi me'yorlari, mazmuni.

Texnosferada havo muhitining ko'rsatkichlari, ularning mehnat faoliyatiga ta'siri, ishlab chiqarish mikroqlimining gigiyenik me'yorlari, ularning inson organizmiga ta'siri. Ishlab chiqarishda mo'tadil ob-havo sharoitini yaratish. Ishlab chiqarish changlari moddalarning inson organizmiga salbiy ta'siri.

4-mavzu. Ishlab chiqarish changlari va zaharli moddalarning inson organizmiga salbiy ta'siri, ularga qarshi chora-tadbirlar.

Changlarga qarshi chora-tadbirlar. Ishlab chiqarish jarayonlarida zararli omillar va ulardan himoyalash tadbirlari. Ishlab chiqarishda zararli moddalar va ulardan himoyalash usullari.

2.2. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Taxminiy tavsiya etilayotgan amaliy mashg'ulotlarda talabalar HFX fanining turli xil ko'rinishlarida yetkazilgan zararlarni, favqulodda vaziyat oqibatlarini bartaraf etishga jalb etiladigan kuch va vositalar miqdorini hisoblash asoslari o'rgatiladi. Xavflar oqibatlarini bartaraf etish ishlarining ketma-ketligi bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilinadi.

Amaliy mashg'ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

HFX fanining asosiy tushunchalari mohiyatini; xavf turlarini, ularni guruhlash va identifikatsiyalashni; tavakkal nazariyasi mohiyati va qoidalarini; turli tizimlarni dekompozitsiyalashni, xavfsizlikni tizimiy tahlil qilishni va loyihalashni; "xavf-sabab-oqibat" ketma-ketligini; xavfsizlikning ergonomik asoslarini; maqbul ish joyini tashkil qilishni; operatorga tushadigan yuklanishlarini; shaxsiy va ommaviy himoyalash vositalaridan foydalanishni; jabrlanganlarga birlamchi tibbiy yordam berishni; ishlab chiqarish xonalari va ish o'rinlarida mehnat sharoitini shakllantiruvchi omillarni hisoblashni; turli favqulodda holatlarda to'g'ri harakat qilish qoidalarini; zararlangan obyekt holatini baholash uslublarini va asboblarini; yong'inni o'chirish modda va vositalarini o'rganish.

Xavf, xavfsizlik madaniyati; HFX aksiomalari; tavakkalning turlari, uni boshqarish tamoyillari, bosqichlari va uslublari; xavflar ta'sirida yuzaga keladigan zararlarni va salbiy oqibatlar, siyosiy va harbiy, iqtisodiy va ijtimoiy, demografik va

ekologik xavfsizlik; jamiyat va shaxs, madaniyat va oziq-ovqat, ilmiy-texnik va axborot (informatsiya) xavfsizligi; faoliyat xavfsizligini ta'minlashda insonning psixofiziologik ko'rsatkichlarining ahamiyati; faoliyat xavfsizligini nazorat qiluvchi davlat tashkilotlari va ularning vazifalari; favqulodda vaziyatlarining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Xavflarning xususiyatlarini va guruhlanishini o'rganish.
2. Xavfsizlik texnikasi bo'yicha yo'riqnomalar va ularni hujjatlashirish tartiblari.
3. Baxtsiz hodisalarni tahlil qilish uslublari va jarohatlanish ko'rsatkichlarini aniqlash
4. Baxtsiz hodisani tahlil qilish uchun «Sabablar va xavflar daraxti»ni qurishni o'rganish.

2.3. Laboratoriya mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Ushbu o'quv fani bo'yicha laboratoriya ishlari o'quv rejada rejalashtirilmagan.

2.4. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlari

2.5. Kurs ishi (loyihasi) bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Kurs ishi (loyihasi) rejalashtirilmagan

2.6. Mustaqil talim va mustaqil ishlar

HFX fani bo'yicha talaba mustaqil ishini tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- fandan amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
- prezentatsiyalar tayyorlash;
- ko'rgazmali vositalar tayyorlash;
- maqola, tezislar tayyorlash;
- bitiruv malakaviy ishi uchun materiallar to'plash;
- amaliy mazmundagi nostaandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash.

Ushbu o'quv fani bo'yicha talabaning mustaqil ishi uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. HFX muammolarini o'rganishga katta hissa qo'shgan jahon va vatanimiz olimlari. Ularning asosiy ilmiy-amaliy ishlari.
2. Xavflarni kvantifikatsiyalashning sonli, balli va boshqa uslublarini tahlil qilish.

<ol style="list-style-type: none"> 3. Xavfsizlikni ta'minlash tamoyillari va uslublarini tahlil qilish. 4. Faoliyatning turli bosqichlarida xavfsizlik shartlarini tahlil qilish. 5. Faoliyat xavfsizligini ta'minlashning ergonomik ko'rsatkichlarini tahlil qilish. 6. Ish o'rnini tashkillashtirishning talablari. 7. Inson antropometrik ko'rsatkichlarining faoliyat xavfsizligiga ta'siri. 8. Faoliyat xavfsizligini ta'minlashda psixologik omillarning ahamiyati. 9. O'zbekiston Respublikasida hayot faoliyat xavfsizligini ta'minlash sohasida qabul qilingan qonun va me'yoriy hujjatlar tizimi. 10. Hayot faoliyatini xavfsizligi fani bo'yicha glossariy tuzish. 11. Insonning fiziologik va psixologik tavsiflarining xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati. 12. Odam anatomiyasining (antropometrik parametr-larining) xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati. 13. Hayot faoliyatini xavfsizligini ta'minlashga oid xalqaro tajriba va izlanishlar taxlili. 14. Hayot faoliyatini xavfsizligini ta'minlashga oid chet davlatlarda qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlar taxlili. 15. Shovqin va tirashdan himoyalash texnik vositalarining guruhlanishi va tuzilishi. 16. Mashina va mexanizmlar uchun texnika xavfsizligi talablari keltiriladigan me'yoriy hujjatlar tizimi. 17. Davlat yong'in xavfsizligi xizmati. 18. Respublika bo'yicha yong'inlar sodir bo'lishi va ularda ko'riladigan zararlarni ta'minlashda statistik ma'lumotlar taxlili. 19. Yong'indan himoyalashning zamonaviy texnik vositalari. 20. Xalqaro terrorizm va terroristik tashkilotlar. 21. O'zbekistonda bo'lishi mumkin bo'lgan texnologiyalar. 22. Markaziy Osiyoda bo'lishi mumkin bo'lgan tabiiy xavflar. 23. "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnologiyalar xavfsizligini ta'minlashda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun bandlarini o'rganish. 24. Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi(FVDT)ning strukturaviy tuzilishini o'rganish. 25. "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi qonun bandlarini o'rganish. 26. "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun bandlarini o'rganish. 27. "Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida" gi qonun bandlarini o'rganish. 28. "Chiqindilar to'g'risida" gi qonun bandlarini o'rganish. 29. Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qabul qilingan davlat standartlari tizimini o'rganish. 30. "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida" gi qonun bandlarini o'rganish. 31. "Sanitariya nazorati to'g'risida"gi qonun bandlarini o'rganish. 32. "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonun bandlarini o'rganish.
--

<ol style="list-style-type: none"> 33. Tashkilotlardagi mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarishdagi xavfli obyektlari. 34. Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarishni xududiy, ishlab chiqarishdagi darajasi. 35. Korxonalarda ishchilarni mehnatni muhofaza qilishni tashkillashtirish. 36. Ish joylarini sharoitiga ko'ra attestatsiya qilish, korxonalaridagi mehnatni muhofazalash ishlari bo'yicha sertifikatlash. 37. Davlatimizda va chet ellardagi hayot faoliyatini xavfsizligining madaniyatini holati. 38. Hayot faoliyatini xavfsizligining madaniyatini umumiy tavsifi, uning tarixiy, falsafiy, ijtimoiy va diniy asoslari. 39. Hayot faoliyatini xavfsizligining madaniyatini tushunchasi. 40. Hayot faoliyatini xavfsizligining madaniyatini tashkil etish obyektlari. 41. Hayot faoliyatini xavfsizligi sohasidagi xalqari tajribalar. 42. Xodimlarning xavfsiz faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari. 43. Ish beruvchining majburiy javobgarligi. 44. Mehnat xavfsizligi bo'yicha xodimning bilimlarini tekshirish. 45. Insonning faoliyat jarayoniga madaptatsiyasi. <p>III. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • O'zbekiston Respublikasi, xamdo'stlik mustaqil davlatlari, boshqa yetakchi davlatlardagi mehnat bozorining hozirgi vaqtidagi masalalari; <ul style="list-style-type: none"> - bilimlarning bir butun tizimi bilan o'zaro bog'liqlikda ushbu fanning asosiy muammolari; - hayot faoliyatini xavfsizligining umumiy masalalari; - hayot faoliyatini xavfsizligining huquqiy - me'yoriy asoslari; - hayot faoliyatini xavfsizligining tashkiliy masalalarini va bulardan kelib chiqayotgan muammolarni yechish bo'yicha tasavvurga va bilimga ega bo'lishi; - xavflarni inson organizmiga ta'siri; - insonga xavfli va zararli omillarning ta'sir qilish darajalari; - ergonomikaga qo'yiladigan talablar; - ish joyiga qo'yiladigan talablar; - hayot faoliyatini xavfsizligining huquqiy - me'yoriy asosini tashkil qiluvchi hujjatlar tizimi bilan ishlashni ko'nikmalariga ega bo'lishi; - ishlab chiqarishdagi yuzaga keladigan xavflarni tekshirish, o'rganish va tahlil qilish asoslarini; - shaxsiy va jamoa himoya vositalaridan foydalanish malakasiga ega bo'lishi <p>kerak.</p>
<p>3.</p> <p>IV. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadialar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
<p>4.</p>

<ul style="list-style-type: none"> • guruhdarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. 	<p>V. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ismni topshirish.</p> <p>VI. Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. A. Mark, P. Friend James Fundamentals of Occupational Safety and Health. Berman Press. Germaniya, 2007 2. E.I.Ibragimov, S.Gazinazarova, O.R.Yuldashev. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma.-T.: TIMI – 2014. 3. E.I.Ibragimov, S.Gazinazarova, O.R.Yuldashev. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Darslik.-T.: TIMI, 2014.-536 b. 4. O.R.Yuldashev, Sh.G.Djabborova, O.T.Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik.-T.: "Toshkent-iqtisodiyot", 2014.-268 b. 5. Yormatov G'Yo. va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. -T.: "Aloqachi", 2009. - 348 b. 6. G'oyipov H.E. Hayot faoliyati xavfsizligi. -T.: "Yangi asr avlodi", 2007. 7. Qudratov A. va b. "Hayotiy faoliyat xavfsizligi". Ma'ruza kursi. -T.: Aloqachi" 8. O'. Yo'ldashev va boshqalar. Mehnatni muhofaza qilish. -T.: Mehnat, 2005. 9. Yormatov G', Isamuhamedov YO. Mehnat muhofazasi. -T.: O'zbekiston, 2002. - 384 b. <p>6.1. Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 10. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. -T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. - 56 b. 11. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza 2016 yil 7 dekabr. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. - 48 b 12. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 488 b. 13. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. - T.: 2017 yil 7 fevral, PF-4947-sonli Farmoni. 14. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -T.: "O'zbekiston", 2008. 15. Yo'ldashev O'.R., Usmonov, U., Qudratov O. Mehnatni muhofaza qilish. -T.: Mehnat, 2001. 16. "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. -T.: 2002., 1-son. 17. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining
---	---

<p>boshqa xil zararlarni tekshirish va hisobga olish to'g'risidagi Nizom. Vazirlar Mahkamasining qarori №286, 06.06.1997, -T.: 1997.</p> <p>18. Ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilar va talabalar bilan yuz bergan baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish tartibi to'g'risida NIZOM. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. -T.: 2011., 3-son, 29-modda.</p> <p>19. Mehnat sharoitlarini baholash va mehnat sharoitlari bo'yicha ish o'rmlarini attestatsiya qilish uslub. Mehnat vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi ishlab chiqqan, №247, 28.05.1996, -T.: 1996.</p> <p>20. Yormatov G'.Yo. va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. -T.: "Aloqachi", 2009. - 348 b.</p> <p>21. Yormatov G'. YO. va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. O'quv qo'llanma. -T.: 2005.</p> <p>6.2. Internet saytlari</p> <p>22. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.</p> <p>23 www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.</p> <p>24. www.mintrud.uz - Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sayti.</p> <p>55. www.bilim.uz - O'UMTV sayti</p>	<p>7. Fan dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tamonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</p> <p>Fan/modul uchun mas'ullar: O.D.Raximov-Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti "Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi" kafedrasini mudiri, professor. Muradov.S.H-Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti "Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi" kafedrasini stajyor o'qituvchisi.</p> <p>Taqrizchilar: O.A. Mirzayev - QMII "Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi" kafedrasini dotsenti Z.U.Sunnatov-Axborot texnologiyalari va menejment universiteti nodavlat oliy ta'lim tashkiloti rektori. Texnika fanlari nomzodi, dosent.</p> <p>9.</p>
---	--